

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



german
cooperation

DEUTSCHE ZUSAMMENARBEIT

Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES

legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК ВАНODIROVICH**
O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo'llashning ayrim jihatlari

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar
to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления
в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового
регулирувания и их перспективы в Республике
Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik
prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy
ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning
o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud
tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning
subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish
shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor
and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy
asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных
гражданских служащих: теоретические и
методологические подходы
-
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН
ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ
ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./BLWJ8760>
UDC: 342.9(045)(575.1)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “MA’MURIY TARTIB-TAOMILLAR TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI QABUL QILINGANIGA 6 YIL TO‘LISHI ARAFASIDA: ASOSIY YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Nematov Jo‘rabek Nematilloevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma‘muriy va moliya huquqi kafedrası
professori v. b., yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3406-0784
e-mail: jura0404uzb@mail.ru; j.nematov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinganidan keyingi 6 yil ichida erishilgan asosiy yutuqlar va muammolar tahlil qilingan. Jumladan, ma‘muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari, ma‘muriy-huquqiy normalar, ma‘muriy aktga oid qoidalarning ma‘muriy sud amaliyotida qo‘llanishiga oid ayrim masalalar tahlil qilingan. Ma‘muriy sudlar tomonidan hali-hanuz ma‘muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplarini (“Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 5–19-moddalari) qo‘llash borasida ayrim muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin. Tan olish lozimki, qonuniylik (6-modda), tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi (9-modda), manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi (11-modda) ma‘muriy sudlar amaliyotida nisbatan ko‘proq qo‘llanmoqda. Bu prinsiplar o‘rinli va to‘g‘ri qo‘llanayotganini ham e‘tirof etish joiz. Biroq mutanosiblik prinsipi (7-modda), ishonchning himoya qilinishi prinsipi (16-modda), ma‘muriy ixtiyoriylikning (diskretion vakolatning) qonuniyligi prinsipini (17-modda) sud amaliyotida qo‘llash borasida hali-hanuz muammolar mavjud. Ma‘muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko‘rishda hali-hanuz fuqarolik qonunchiligi asosida yondashish mavjudligini ham e‘tirof etish o‘rinlidir.

Kalit so‘zlar: ma‘muriy akt, ma‘muriy organ, ma‘muriy-huquqiy munosabat, ma‘muriy akt belgilari, sud amaliyoti, ma‘muriy sud ish yurituvi, ma‘muriy tartib-taomillar.

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН НАКАНУНЕ 6-ЛЕТИЯ ПРИНЯТИЯ ЗАКОНА «ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУРАХ»: ОСНОВНЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Нематов Журабек Нематиллоевич,
доктор юридических наук, и. о. профессора
кафедры «Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются основные достижения и проблемы в преддверии 6-летия принятия Закона Республики Узбекистан «Об административных процедурах». В частности, проанализированы некоторые вопросы, связанные с применением в практике административного суда основных принципов административных процедур, административно-правовых норм, положений, касающихся административного акта. Отмечено, что всё ещё существуют некоторые проблемы с применением административными судами основных принципов административных процедур (статьи 5–19 Закона об административных процедурах). Следует признать, что законность (статья 6), принцип возможности быть выслушанным (статья 9), принцип приоритета прав заинтересованных лиц (статья 11) используются в практике административных судов сравнительно чаще. Следует также признать, что эти принципы применяются уместно и правильно. Однако

o'stayaat problemi s primeneniem v sudebnoy praktike printsiya sorazmernosti (statya 7), printsiya zaщitы doverya (statya 16), printsiya zakonnosti administrativnogo usmotreniya (statya 17). Umetno takzhe priznatъ, что do sikh por sushchestvuet grazhdansko-pravovoy podkhod pri rassmotrenii sporov, voznikayushchix iz administrativno-pravovyx otnosheniy. Na primere iz sudebnoy praktiki vidno, что administrativnyy sud podoshel k voprosu na osnove grazhdanskogo prava.

Ключевые слова: административный акт, административный орган, административно-правовые отношения, признаки административного акта, судебная практика, административное судопроизводство, административные процедуры.

THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IS CLOSE TO THE 6TH ANNIVERSARY OF THE ADOPTION OF THE LAW "ON ADMINISTRATIVE PROCEDURES": MAIN ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS

Nematov Jurabek Nematiloevich,

Tashkent State University of Law

Acting Professor of the Department of Administrative and Financial Law, Doctor of Law

Abstract. This article analyzes the main achievements and problems on the 6th anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Administrative Procedures." In particular, some issues related to the application of the main principles of administrative procedures, administrative-legal norms, and provisions related to administrative acts in administrative court practice were analyzed. It can be seen that there are still some problems with the application of the main principles of administrative procedures (Article 5-19 of the Law on Administrative Procedures) by the administrative courts. It should be recognized that legality (Article 6), the principle of availability of hearing (Article 9), and the principle of priority of the rights of interested persons (Article 11) are used relatively more in the practice of administrative courts. It should also be recognized that these principles are appropriate and correctly applied. However, there are still problems regarding the application of the principles of proportionality (Article 7), protection of trust (Article 16), and legality of administrative discretion (Article 17) in judicial practice. It is also appropriate to recognize that there is still an approach based on civil law when dealing with disputes arising from administrative-legal relations.

Keywords: administrative act, administrative body, administrative-legal relationship, signs of administrative act, court practice, administrative court proceedings, administrative procedures.

Kirish

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston tarixida birinchi marotaba fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlardan alohida bo'lgan ma'muriy sudlarning joriy etilishi, 2018-yil 8-yanvarda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning, shuningdek, 2018-yil 25-yanvarda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning qabul qilinishi bilan O'zbekistonning ma'muriy huquq sohasida yangi davr boshlandi, desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki ushbu yangiliklar rivojlangan xorijiy davlatlar standartlari da-

rajasida hamda milliy qonunchilikning o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning eng zamonaviy qoidalarini mamlakatimizda joriy etdi.

Material va metodlar

Maqolada O'zbekistondagi yuqoridagi ta'kidlangan ma'muriy huquq bo'yicha yangi qonunchilik sud amaliyotida qanday qo'llanayotganini aniq misollarda tahlil qilish usulidan foydalanildi. Ta'kidlash joizki,

2019–2020-yillarda “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonun dastlab sud amaliyotida kam qo’llandi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, O’zbekistonda ma’muriy sud o’z amaliyotida va tegishli sud hujjatlarida ushbu qonun normalaridan shartli ravishda uch ko’rinishda foydalanishgani aniqlandi. Birinchi toifadagilar faol, ikkinchi toifadagilar ehtiyotkor, uchinchi toifadagilar qonunni o’z amaliyotida qo’llamaydilar.

Birinchi toifa – qonunni o’z amaliyotida va tegishli sud hujjatlarida faol foydalanadigan ma’muriy sudlar hisoblanadi. Jumladan, bu toifadagi sudlar o’z sud hujjatlarini qabul qilishda qonunning 1-, 4-, 5-, 9-, 24-, 59-, 60-moddalaridan foydalanishgan. Xususan, hokim o’z qarorini prokuror protesti asosida qayta ko’rib chiqqan va bekor qilganda manfaatdor shaxsning ishtirok etishi va tegishli tartibda xabar berish qoidasi buzilganligi, bu esa tinglash imkoniyati prinsipining buzilishiga olib kelgani (9-, 33-, 59-, 60-moddalar). Bu o’z navbatida, manfaatdor shaxs huquqlarining jiddiy buzilishi bo’lib, natijada ma’muriy sud tomonidan tegishli hokim qarori haqiqiy emas, deb topilgan¹.

Ikkinchi toifa sudlari o’z sud hujjatlarida qonunda keltirib o’tilgan ayrim tushunchalarga murojaat qilish bilan cheklanganini ko’rish mumkin. Jumladan, Qonunning 4-moddasida keltirib o’tilgan ma’muriy organ, ma’muriy-huquqiy faoliyat kabi tushunchalar shular jumlasidandir. Shuning uchun ham aytish mumkinki, mazkur ma’muriy sudlar qonunni sud amaliyotida qo’llashda ehtiyotkorona munosabatda bo’lishadi. Bunda qonunni o’z amaliyotida qo’llashni afzal ko’rgani holda, biroq bu borada asosan qonun 4-moddasida ko’rsatilgan ba’zi tushunchalarni keltirib o’tish bilan cheklanganini ko’rish mumkin².

Uchinchi toifa ma’muriy sudlar qonun normalarini o’z sud hujjatlarini qabul qilishda to’g’ridan to’g’ri qo’llashmaganini ko’rish mumkin. Jumladan, mazkur toifadagi sudlar ko’pgina nizolarda “ma’muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan, litsenziya, ruxsat berish, ro’yxatdan o’tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek, qonunchilikka muvofiq boshqa ma’muriy-huquqiy faoliyatga” nisbatan qonunning tatbiq etilishi mumkinligini bilgani holda (3-modda), qonun normalarini o’z sud hujjatlarini qabul qilishda to’g’ridan to’g’ri qo’llashmaganini ko’rish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonun normalarini ma’muriy amaliyotda qo’llash, eng avvalo, tegishli ma’muriy organlarning asosiy vazifasi va mas’uliyatidir. Bugungi kunda ma’muriy organlarning aksariyati o’z faoliyatida ushbu qonun normalarini deyarli qo’llamaydi yoki ularga kamdan kam hollarda rioya qiladi. Bu esa, o’z navbatida, mazkur organlarning qarorlari bilan qonun talablari o’rtasidagi nomuvofqlikka olib keladi. Albatta, bunday sharoitda ma’muriy organlarning aksariyat qarorlari ushbu Qonunning qoidalariga rioya qilinmaganlik asosi bilan noqonuniy norma bo’lib qolishi mumkin. Shunga ko’ra, 2021-2023-yillardagi ma’muriy sudlar amaliyotida “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonun normalariga asoslangan holda ishni mazmunan ko’rib chiqqan sud hujjatlari soni va ko’lami sezilarli darajada oshganini ijobiy jihat va yutuq deb e’tirof etish o’rinlidir.

Shunday bo’lsa-da, bundan keyin ham bu boradagi ayrim muammolarga yechim topish nuqtayi nazaridan ayrim takliflarni berib o’tish o’rinlidir.

¹ Toshkent shahar Mirzo Ulug’bek tuman ma’muriy sudining 2019-yil avgustdagi qarori “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 1-, 4-, 5-, 24- va 59-moddalari (prokurorning noroziligini ko’rib chiqish tartibi) buzilishini ko’rsatdi. Bundan tashqari, Toshkent shahar ma’muriy sudi o’z amaliyotida “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 1-, 3-, 4-, 60-moddalari buzilganini ham ko’rsatdi.

² Masalan, Toshkent shahar Bektemir tuman ma’muriy sudining 2019-yil avgustdagi qarori “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunning 4-moddasi buzilishini ko’rsatdi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Birinchidan, ma'muriy sudlar tomonidan hali-hanuz ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplarini ("Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 5–19-moddalari) qo'llash borasida ayrim muammolar mavjudligini ko'rish mumkin.

Tan olish lozimki, qonuniylik (6-modda), tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi (9-modda), manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi prinsipi (11-modda) ma'muriy sudlar amaliyotida nisbatan ko'proq qo'llanayotganini ham e'tirof etish joiz. Biroq mutanosiblik prinsipi (7-modda), ishonchning himoya qilinishi prinsipi (16-modda), ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsiya vakolatning) qonuniyligi prinsipini (17-modda) sud amaliyotida qo'llash borasida hali-hanuz muammolar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Ple-numining 2023-yil 23-iyundagi "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risidagi 16-son qarorida "sudlar davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari bilan munosabatlarda inson huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida mazkur organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan insonga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llashda Konstitutsiyada belgilangan mutanosiblik prinsipiga rioya qilinganligini tekshirishlari lozim"ligi, "sudlar Konstitutsiyaning 20-moddasi talablaridan kelib chiqib, shaxsga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligini inobatga olishlari zarur"ligi keltirib o'tildi. Biroq mutanosiblik prinsipini ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqishda tatbiq etish borasida mutanosiblik testi qo'llanmayotganini ko'rish mumkin. Sud

hujjatlarida shunchaki 7-modda mutanosiblik prinsipiga murojaat qilinib, ushbu prinsipni mutanosiblik testi asosida baholanmayotganini ko'rish mumkin.

Mutanosiblik prinsipi ma'muriy protseduralar prinsiplari ichida eng muhimi hisoblanadi. Ushbu prinsipni amalda tatbiq etishda quyidagi to'rt jihatni inobatga olish talab etiladi (Pudelka, 2017). Avvalo, ma'muriy organning ma'lum bir xatti-harakati, ma'muriy akti legitim (qonuniy) maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, ushbu legitim maqsad "yaroqli" bo'lishi lozim. Ya'ni ma'muriy organ amalga oshirayotgan ta'sir chorasini orqali legitim maqsadga erishib bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savolga javob berish lozim. Uchinchidan, ma'muriy organ amalga oshirayotgan ta'sir chorasini "zaruriy" ("kerakli") bo'lishi lozim. Ya'ni amalga oshirilayotgan ta'sir chorasining A, B, D kabi variantlari bo'lgani holda ushbu ta'sir choralarning qay biri legitim maqsadga erishishda eng samarali va ishonchli hisoblanishi hamda manfaatdor shaxsga eng kam zarar yetkazishiga e'tibor berilishi lozim. To'rtinchidan, oldini olish kutilayotgan xavf, zarar yoki erishilishi kutilayotgan ommaviy manfaat hamda ta'sir chorasini qo'llash orqali manfaatdor shaxsga yetkaziladigan zarar, erishilishi kutilayotgan xususiy manfaat taqqoslanishi lozim va shunga qarab harakatlanish talab etiladi. Mana shu to'rt jihatni e'tiborga olgan testdan ijobiy o'tgan hollardagina tegishli ta'sir chorasini qo'llash to'g'risida ma'muriy akt yoki xatti-harakat amalga oshirilishini qonuniy deb baholash mumkin. Yevropa sudlarida xususiy shaxslarning huquqlari ma'muriy organlarning qandaydir dasturlari bilan teskari keladigan hollarda mutanosiblik prinsipini ishlatib, sudlar xususiy huquqlarni himoya qilishga harakat qilishini ko'rish mumkin (Rose-Ackerman & Lindseth, 2010).

Ishonchning himoya qilinishi prinsipini (16-modda) sud amaliyotida qo'llash borasida ham muammolar mavjudligini e'tirof

etish o'rinlidir. Ushbu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, manfaatdor shaxsning ishonchi quyidagi hollarda himoya qilinmaydi (59-modda 7-qismi), agar:

- manfaatdor shaxs ma'muriy hujjat bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa;

- manfaatdor shaxs o'ziga ma'muriy hujjat asosida taqdim etilgan pul mablag'laridan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmagan bo'lsa;

- manfaatdor shaxs ma'muriy hujjatning g'ayrihuquqiyligini bilgan yoki o'z aybiga ko'ra bu haqda bilmagan bo'lsa;

- ma'muriy hujjat aldash, tahdidlar yoki ma'muriy organga boshqacha tarzda g'ayrihuquqiy ta'sir ko'rsatish oqibatida qabul qilingan bo'lsa;

- qonun manfaatdor shaxslar ishonchining himoyasini hisobga olmagan holda ma'muriy hujjatni bekor qilishni talab etsa.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 59-moddasiga ko'ra, manfaatdor shaxsning ishonchidan qat'i nazar, qonunchilikka muvofiq emas deb topilgan ma'muriy hujjat, agar uning saqlab qolinishi jamoat manfaatlariga tahdid solayotgan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Afsuski, sudda ishni ko'rishda yuqorida keltirib o'tilgan qonun 59-moddasining 7- va 9-qismi yuzasidan yetarlicha aniqlik kiritmasdan turib ishonchning himoya qilinishi prinsipini (16-modda) qo'llash holatlari mavjudligini ko'rish mumkin.

Bu borada quyidagi sud amaliyotidan ko'chirmani misol qilib keltirib o'tish mumkin.

1-keys. Ishdagi hujjatlarga ko'ra, Toshkent viloyati Zangiota tumani hokimining 2018-yil 12-fevraldagi 223-sonli qarori bilan Xonobod qishlog'i Nomdanak mahallasi Fayzli ko'chasi 7-xonadonning yon-atrofida joylashgan qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan jami 0,41 gektar yer uchastkasi fuqaro I.K.ga qurilish qilmaslik sharti bilan obodonlashtirish,

ko'kalamzorlashtirish va bog' tashkil etish uchun biriktirib berilgan. Ushbu qarorda "ajratilsin" degan jumla mavjud emas. Qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilib, I.K.ga 2018-yil 16-aprelda T00061935-sonli guvoynoma berilgan.

Zangiota tumani hokimining 2020-yil 5-maydagi 239-sonli qaroriga asosan, Zangiota hokimligi huzuridagi yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2020-yil 11-mart kunidagi dalolatnomasi tasdiqlanib, Zangiota hokimining 2018-yil 12-fevraldagi 223-sonli qarori bekor qilingan va 0,41 gektar yer uchastkasi tuman zaxira yerlari fondiga qaytarilgan.

Tuman hokimining 2020-yil 25-avgustdagi 812-sonli qarori bilan ushbu yer uchastkasi kapital qurilish qilmaslik sharti bilan yakka tartibda bog'dorchilik bilan shug'ullanish uchun 10 yil muddatga vaqtincha foydalanish huquqi bilan fuqaro O.J.ga ajratib berilgan.

Zangiota tuman hokimining 2020-yil 5-maydagi 239-sonli qaroridan norozi bo'lib, I.K. sudga ariza bilan murojaat qilgan. Arizada I. Komilov yer uchastkasi ajratish evaziga 25 ta mahallaga "nazorat punkti" o'rnatganligi, ajratilgan yer uchastkasidan noqonuniy foydalanib kelgan fuqarolarga nisbatan qabul qilingan sud qarori 2020-yil 31-yanvarda ijro etilgani, undan so'ng yengil tipdagi qurilishga ruxsat olish uchun hokimiyatga qatnagani, keyin esa koronavirus pandemiyasi boshlangani, yer olib qo'yilganligi haqida ogohlantirilmagani haqida vajlar keltirdi.

Yuqori instansiya sudi o'z qarorida mazkur ish yuzasidan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunni quyidagi mazmunda qo'llaganini ko'rish mumkin.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonundagi asosiy tushunchalarda ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat) mavjud bo'lib, u ma'muriy organning qonun hujjatlari doirasida yo'l qo'yilgan choralardan birini qonuniylikka va maqsadga muvofiqlikka o'zi baho berishi asosida o'z ixtiyoriga ko'ra qo'l-

lash yoki tegishli chorani qo'llashdan voz kechish huquqini anglatadi.

Shuningdek, ushbu qonunning asosiy prinsiplarida mutanosiblik; manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi; teng huquqlilik; ishonchning himoya qilinishi kabi prinsiplar mavjud.

Ushbu nizoni hal etishda apellatsiya instansiyasining sudi arizachi I.K.ga yer uchastkasi tadbirkorlik maqsadida emas, balki obodonlashtirish uchun noma'lum muddatga ajratilganligi, yerni davlat zaxirasiga qaytarish to'g'risidagi qaror I.K.ning hech qanday huquqini buzmagani, u deyarli 3 yil davomida bajarmagan ishlarni manfaatdor shaxs O.J. qisqa muddatda bajargani, yer uchastkasini O.J.ga 10 yilga ajratish haqidagi hokim qarori qonuniy kuchda ekani va I.K. tomonidan nizolashilmagani, O.J.ning davlat organi tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktga nisbatan ishonchi ham himoya qilinishi lozimligiga e'tibor qaratmagan.

1-keys yuzasidan izoh. Mazkur holatda ham ko'rish mumkinki, sudda ishni ko'rishda yuqorida keltirib o'tilgan Qonun 59-moddasi ning 7- va 9-qismi yuzasidan yetarlicha aniqlik kiritmasdan turib ishonchning himoya qilinishi prinsipini (16-modda) qo'llash holati mavjud (Nematov, 2020; Nematov, 2022).

Ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi prinsipini (17-modda) sud amaliyotida qo'llash borasida ham ayrim tushunmovchiliklar mavjudligini ta'kidlash o'rindir.

Ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarorining 20-bandida quyidagilar keltirilgan: "Qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatga ko'ra, qaror qabul qilish yoki qabul qilmaslik, harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik ma'muriy organ yoki mansabdor shaxs ixtiyoriga berilgan holda, sud bunday qaror qabul qilish yoki qabul qilmaslik, harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik maqsadga muvofiqligini baholashga haqli emas (masalan, muayyan shaxsni

mukofotlash to'g'risida hujjat qabul qilmanlikda ifodalangan harakatsizlik ustidan shikoyat qilinganda)".

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarori 20-bandi mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, ma'muriy sudlar ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligiga qaysi mezon va holatlarda huquqiy baho bera olishini anglash qiyin. Ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylikiga kiradigan masalalarga ma'muriy sud umum huquqiy baho berishi mumkin emas, degan nuqtayi nazar ham bildirilmoqda. Albatta bu ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi prinsipiga (17-modda) ziddir.

Ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) qonunda o'rnatilgan tarzda qo'llanishi lozim. Ma'muriy ixtiyoriylikni qonunda o'rnatilgandan boshqacha tarzda qo'llash uning noqonuniyligini keltirib chiqaradi (ma'muriy ixtiyoriylikni qo'llashdagi xatolik). Shunga ko'ra, ma'muriy ixtiyoriylikni quyidagi ko'rinishlarda qo'llash noqonuniy, ya'ni suiiste'mol qilish deb tan olinadi: a) mavjud bo'lmagan faktlar asosida ma'muriy akt qabul qilish yoki ma'muriy aktni qabul qilishdagi muhim faktlarni aniqlashda xatolikning mavjudligi kabilar; b) jamiyat manfaatlariga zid mazmundagi ma'muriy aktning qabul qilinishi; d) ma'muriy akt qabul qilish tartibidagi xatolik, jumladan, ma'muriy organ tomonidan ma'muriy aktni qabul qilish uchun inobatga olish talab etiladigan holatlarni yetarlicha inobatga olmaganligi yoki inobatga olinishi lozim bo'lgan holatlardan tashqari holatlarga ko'proq tayangan holda ma'muriy aktni qabul qilish (shuningdek, ish mazmuniga aloqasi bo'lmagan jihatlarni inobatga olishi) yoxud ma'lum bir ishning o'ziga xos, alohida xususiyatlaridan kelib chiqmasdan hammaga bir xil tarzda yondashib ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat)ni qo'llash kabilar; e) to'g'ri protseduraning buzilishi; f) ma'muriy ixtiyoriylik qo'llanishi qonunda nazarda tutilgani holda hamda mazkur vakolatni qo'llash lozim bo'lishiga qaramasdan ma'muriy or-

gan tomonidan o'z ma'muriy ixtiyoriyligini qo'llamasligi (ma'muriy ixtiyoriylikning passiv suiiste'moli)dan iborat bo'ladi (Nematov, 2020).

Ikkinchidan, ma'muriy aktning tushunish bilan bog'liq muammolar ham mavjudligini e'tirof etish o'rinlidir.

Ilmiy adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, ma'muriy aktning quyidagi beshta asosiy belgisi mavjudligini ta'kidlash zarur: 1) ma'muriy aktning ma'muriy organ tomonidan qabul qilinishi, 2) hokimiyat vakolati asosida qabul qilinishi, 3) ommaviy-huquqiy munosabat yoki yanada aniqroq aytganda ma'muriy-huquqiy munosabat doirasida huquqiy oqibat yuzaga keltirishi, 4) tashqi subyektlarga yo'naltirilganligi, 5) individualligi (aniqligi) (Ichihashi, 2010). Shunga ko'ra, ma'muriy akt deganda ma'muriy organ tomonidan qabul qilnadigan, tashqi subyektlarga yo'naltirilgan, ommaviy-huquqiy munosabat yoki yanada aniqroq aytganda ma'muriy-huquqiy munosabat doirasida huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi, aniq (individual) xususiyatga ega bo'lgan har qanday hokimiyat ta'sir chorasini tushunish mumkin) (Barry, 1989; Solomon, 2000, Simis, 1979).

Quyida sud amaliyotidan misol (ko'chirma tarzida) asosida mazkur masalani ko'rib chiqamiz.

2-keys. Arizachi "BGP Petroleum" doimiy muassasasi sudga ariza bilan murojaat qilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2021-yil 20-apreldagi 03-218-1827ix-sonli xulosasini haqiqiy emas deb topishini so'ragan.

Ish hujjatlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi bojxona boshqarmasining 2013-yil 30-oktabrdagi 256-sonli buyrug'i bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan qo'mitaning 2021-yil 7-apreldagi 2177ix-sonli buyrug'iga asosan, "BGP Petroleum" doimiy muassasasi nomiga 2018-yilda chet davlatlardan vaqtincha olib kelingan hamda jami 7

ta bojxona yuk deklaratsiyasi bilan rasmiylashtirilgan 25 ta avtotransport vositasiga qo'llangan imtiyozning qonuniyligi o'rganib chiqilgan.

O'rganish natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-apreldagi "Neft va gaz konlarini razvedka qilish hamda ularni qazib chiqarishga bevosita xorijiy sarmoyalarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2598-sonli Farmonning 4-bandiga asosan, neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar, shuningdek, ular tomonidan jalb etiladigan xorijiy pudrat va yordamchi pudrat tashkilotlarini qidirish, razvedka qilish va boshqa tegishli ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mashina-uskunalarni, moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni import qilish chog'ida bojxona to'lovlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilingan bo'lsa-da, biroq ushbu Farmon talablariga zid ravishda "BGP National" doimiy muassasasi nomiga 2018-yilda chet davlatlardan vaqtincha olib kelingan hamda 7 ta bojxona yuk deklaratsiyasi bilan "vaqtincha olib kirish" bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan jami 25 ta "avtotransport vositasi"ga 38 504 411 653,71 so'm imtiyoz noto'g'ri qo'llangani aniqlangan.

Ushbu holat bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi bojxona boshqarmasining ishchi guruhi tomonidan 2021-yil 20-aprelda xulosa qilinib, unda bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar noto'g'ri berilgani sababli Bojxona kodeksining 348-moddasiga asosan undirish belgilangan.

Natijada "BGP Petroleum" doimiy muassasasi sudga ariza bilan murojaat qilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2021-yil 20-apreldagi 03-218-1827ix-sonli xulosasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Birinchi instansiya sudi arizachining sudga murojaat qilish mud-

dati o'tkazib yuborilgani uchun arizani qanoatlantirishni rad etish haqida xulosa bergan.

Sudlov hay'ati apellatsiya shikoyatida keltirilgan vajlarni asossiz deb hisoblab, quyidagilarga ko'ra ishni ko'rishda protsessual huquq normalari buzilgani sababli hal qiluv qarorini bekor qilib, ariza bo'yicha ish yuritishni tugatishni lozim topadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 26-, 27-moddalariga ko'ra, ma'muriy sudga ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqli bo'lib, bunda ariza predmeti ushbu organlar tomonidan qabul qilingan ma'muriy hujjatlar yoki ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) hisoblanadi.

Ma'muriy hujjat (akt) deganda ma'muriy organ tomonidan qabul qilinadigan, tashqi subyektlarga yo'naltirilgan, huquqiy oqibat yuzaga keltirib chiqaruvchi, aniq (individual) xarakterdagi har qanday hokimiyat ta'sir chorasi tushuniladi. Biroq mazkur ish bo'yicha ariza predmeti Qoraqalpog'iston Respublikasi Bojxona boshqarmasining ishchi guruhi tomonidan 2021-yil 20-aprelda tuzilgan xulosa bo'lib, ushbu xulosa ma'muriy hujjat emas. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 1-bandida ham tushuntirilgan. Ushbu holatda birinchi instansiya sudi, arizachi nizolashayotgan xulosa ma'muriy hujjat hisoblanmasa-da, ishni mazmunan ko'rib protsessual huquq normalarini buzgan.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 108-moddasi 1-bandiga ko'ra, ish ma'muriy sudga taalluqli bo'lmasa, sud ish yuritishni tugatadi.

2-keys yuzasidan izoh. Ta'kidlash joizki, mazkur keysda Oliy Sud tomonidan ma'muriy akt atamasi ham qo'llanayotganligi hamda ma'muriy huquq nazariyasida keltirib o'tilgan ma'muriy akt belgilariga ham to'g'ridan to'g'ri e'tibor qaratilganligini nazariya va amaliyot uyg'unligiga misol sifatida o'ziga xos yutuq deb tavsiflash mumkin. Mazkur keysda nizoli xulosaning ma'muriy akt sifatida huquqiy oqibat yuzaga keltirish yoki keltirilmashi muammo bo'lmoqda. Bojxona kodeksi 348-moddasi asosida undiruv jarayonining boshlanishi hamda 38 504 411 653,71 so'm imtiyoz noto'g'ri qo'llanganining komissiya (ma'muriy organ) tomonidan ta'kidlanishidan kelib chiqib muayyan huquqiy oqibat yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchidan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko'rishda hali-hanuz fuqarolik qonunchiligi asosida yondashish mavjudligini ham e'tirof etish o'rinlidir (Smith, 1978; Ioffe, 1989; Hazard, 1989; Ichihashi, 2010).

Bu borada quyidagi sud amaliyoti (ko'chirma tarzida) misolini keltirib o'tish o'rinlidir.

3-keys. Yangiyo'l tuman hokimi ayni bir yer uchastkasini ikkita tadbirkorga turli yillarda (2018- va 2020-yillarda) ajratib bergan. Natijada nizoli holat yuzaga kelib tadbirkorlarning biri ma'muriy sudga tegishli hokim qarorini haqiqiy emas deb topish talabi bilan murojaat qilgan. Sud, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 33-moddasiga binoan, yer uchastkasiga bo'lgan huquq ushbu huquq belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olinganidan keyin kuchga kirishini ta'kidlagan.

Yangiyo'l shahri hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli va 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarorlariga asosan, "STUDY" MChJga tegishli 0,1265 gektar yer maydoni 2020-yil 7-aprelda 1727424/R-A955864-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tgan.

Yangiyo'l shahri hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori bilan "SAVDO"

MChJga tegishli bo'lgan bino-inshootlarining haqiqiy egallab turgan umumiy yer maydoni 0,1170 gektardan iborat deb hisoblanishi belgilangan bo'lib, hozirgi kunga qadar ushbu qaror belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi qonun talabidan kelib chiqib, arizachi "SAVDO" MChJning ushbu nizoli yer uchastkasiga bo'lgan huquqi vujudga kelmagan.

Bayon etilganlarga ko'ra, sud Yangiyo'l shahri hokimining 2020-yil 16-martdagi 75-sonli va 2020-yil 27-martdagi 88-sonli qarorlariga asosan, "STUDY" MChJga tegishli 0,1265 gektar yer maydoni davlat ro'yxatidan o'tganini, bino-inshootlarga nisbatan mulk huquqi vujudga kelganligini, biroq arizachi "SAVDO" MChJning ushbu nizoli yer uchastkasiga bo'lgan huquqi vujudga kelmaganligini inobatga olib, arizachi "SAVDO" MChJ arizasi (shikoyati)ni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishni lozim topadi.

3-keys yuzasidan izoh. Mazkur keylarda nizo predmeti bo'lmish hokim qarori ma'muriy-huquqiy normalar talablariga ko'ra qachondan kuchga kiradi?

Avvalo ta'kidlash joizki, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, ma'muriy akt deganda ma'muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o'zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta'sir chorasi tushuniladi. Mazkur keysdagi nizo predmeti bo'lmish hokim qarori ma'muriy akt hisoblanadi. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda ma'muriy aktga oid bir qancha muhim normalar keltirib o'tilgan. Jumladan, ma'muriy akt shakli (52-modda), mazmuni (53-modda), ma'muriy hujjatni asoslantirish (54-modda) va ma'muriy aktni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topishga (59-modda) oid qoidalarni ko'rish mumkin. Ushbu normalar mazmunidan shuni ko'rish

mumkin, ma'muriy aktga oid umumiy va maxsus qoidalar aynan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunda keltirilgan. Shuning uchun ham mazkur qonun boshqa qonun hujjatlaridan ma'muriy aktga oid normalarni belgilash borasida ustun turishini ko'rishimiz mumkin.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasida ma'muriy aktning kuchga kirishiga oid muhim qoidalarni ham topish mumkin. Jumladan, ma'muriy akt adresat tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Adresatni ma'muriy akt to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilish ushbu "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Jumladan, 33-moddaga ko'ra, xabarnomani topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuborish yoki tilxat olib topshirish yoxud xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan axborot tizimlaridan foydalangan holda xabardor qilish ma'muriy ish yuritishda tegishli tarzda xabardor qilish hisoblanadi. Tegishli xabarnoma manfaatdor shaxs tomonidan olingan payt xabardor qilish vaqtidir.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasi mazmunidan ko'rish mumkin, ma'muriy aktning kuchga kirishi uning davlat ro'yxatidan o'tishi bilan bog'lanmaganini ko'rish mumkin.

Shunga ko'ra, ma'muriy akt Yangiyo'l shahri hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori adresat – "SAVDO" MChJ tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Yangiyo'l shahar hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarorini kuchga kirishida davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilish "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga zid hisoblanadi.

Bundan tashqari, garchi Yangiyo'l shahri hokimining 2018-yil 28-maydagi 181-sonli qarori bilan "SAVDO" MChJga tegishli bo'lgan bino-inshootlarining haqiqiy egallab turgan

umumiy yer maydoni 0,1170 gektardan iborat deb hisoblanishi belgilangan bo‘lib, hozirgi kunga qadar ushbu qaror belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan, “SAVDO” MChJning ushbu nizoli yer uchastkasiga bo‘lgan huquqi vujudga kelmagan bo‘lsa-da, lekin uning ushbu yer uchastkasiga oid qonuniy manfaatlar mavjudligini ham e‘tirof etish o‘rinlidir. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks 4-moddasiga ko‘ra, har qanday manfaatdor shaxs nafaqat o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini, balki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ham ma‘muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli. Xuddi shu mazmun kodeksning 185-moddasidan ham anglashiladi.

Bu borada quyidagi yana bir sud amaliyotidan ko‘chirmani misol qilib keltirib o‘tish mumkin.

4-keys. Arizachi Buxoro tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi Buxoro tumanidagi “K-V Chorvadori” fermer xo‘jaligi manfaatini ko‘zlab sudga ariza bilan murojaat qilib, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarorini haqiqiy emas deb topishni so‘ragan.

Buxoro tumanlararo ma‘muriy sudining 2021-yil 24-iyundagi hal qiluv qarori bilan arizachining arizasi qanoatlantirilib, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarori haqiqiy emas deb topilgan.

Apellatsiya shikoyatida ishni ko‘rishda moddiy va protsessual huquq normalari buzilganligi, ariza asossiz qanoatlantirilganligi bayon qilinib, Buxoro tumanlararo ma‘muriy sudining 2021-yil 24-iyundagi hal qiluv qarorini bekor qilish so‘ralgan.

Aniqlanishicha, Buxoro tumani hokimining 2013-yil 10-maydagi 352-Q sonli qaroriga asosan, Nizomjonovga chorvachilik yo‘nalishida fermer xo‘jaligi tashkil etish uchun O‘zbekiston massivi qishloq xo‘jaligi xaritasining 139-, 140-konturlaridan jami 12 gektar yer maydoni 49 yil muddatga ijara shartno-

masi asosida ajratib berilgan va Nizomjonov tomonidan “K-V Chorvadori” fermer xo‘jaligi tashkil etilgan.

Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 36-moddasi 1-qismining 6-, 10-bandlari, Buxoro tumani hokimligi huzuridagi Yer uchastkalarini berish, olish (realizatsiya qilish) masalalarini ko‘rib chiqish komissiyasining dalolatnomasiga asosan ushbu fermer xo‘jaligining O‘zbekiston massivi qishloq xo‘jaligi xaritasining 139-konturida joylashgan jami 3,86 gektar, shundan ekin yer maydoni 3,66 gektar, suvosti yerlar o‘rni 0,06 gektar, yo‘llar o‘rni 0,14 gektar yer maydoni tuman zaxirasiga qaytarilishi hamda fermer xo‘jaligi bilan tuzilgan uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini muddatidan avval bekor qilinishi belgilangan.

“K-V Chorvadori” fermer xo‘jaligidan olingan jami 3,86 gektar yer maydoni “L-YUS-RO” MChJga tanlov asosida Buxoro tuman hokimining 2021-yil 5-apreldagi 234-Q sonli qarori bilan chorva ozuqa ekinlari yetishtirish uchun 49 yil muddatga ijaraga ajratib berilgan.

Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qaroridan norozi bo‘lgan manfaatdor shaxs “K-V Chorvadori” fermer xo‘jaligi Buxoro tumani fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi orqali sudga ushbu hokim qarorini haqiqiy emas deb topish haqida ariza bilan murojaat qilgan.

Birinchi instansiya sudi arizachining arizasidagi vajlarini muhokama qilib, MSiyTKning 189-moddasiga asoslanib, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarori qonunchilikka zid hamda arizachining huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadi, degan xulosaga kelgan va arizani qanoatlantirishni lozim topgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining ushbu xulosasi bilan kelishmaydi va quyidagi asoslarga ko‘ra hal qiluv

qarorini bekor qilib, arizani qanoatlantirishni rad qilish haqida yangi qaror qabul qilishni lozim topadi.

Yer kodeksi 23-moddasining 1-, 2-qismlariga ko'ra, yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish uchun, ijaraga va mulk qilib berish (realizatsiya qilish) yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi; Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonunchilikda belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Yer kodeksining 31-moddasiga asosan, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi joyning o'zida chegaralar belgilanganidan, yer uchastkalarining planlari (chizmalari) va tavsiflari tuzilib, yer uchastkalariga bo'lgan huquq davlat ro'yxatiga olinganidan keyin vujudga keladi.

Fuqarolik kodeksi 366-moddasining 2-qismiga muvofiq, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2011-yil 1-dekabrda "Mulk ijarasi shartnomasiga oid fuqarolik qonun hujjatlari normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 234-sonli qarorining 2-bandida ijaraga beruvchining va ijaraga oluvchi bilan munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat ijarasi shartnomasi hisoblanishi; 4-bandida FKning 539-moddasiga ko'ra, ijarasi shartnomasi bir yildan ortiq muddatga mo'ljallangan bo'lsa, taraflardan birontasi yuridik shaxs bo'lgan hollarda esa muddatidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shartligi, shundan kelib chiqib, bunday toifadagi ishlarni ko'rishda sudlar har bir holatda shartnomani talab qilib olishlari kerakligi, sudlarning e'ti-

bori FK 539-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ko'chmas mulk ijarasi shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiy ekanligiga qaratilgan, ko'chmas mulk ijarasi shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik FKning 112-moddasiga asosan, uning haqiqiy emasligiga olib kelishi, bunda FKning 114-moddasida nazarda tutilgan bitimlarni haqiqiy emasligining oqibatlari qo'llanishi ko'rsatilgan.

Birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorida Buxoro tumani hokimining 2013-yil 10-maydagi 352-Q sonli qaroriga asosan, Buxoro tumani hokimi va "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi o'rtasida uzoq muddatli ijarasi shartnomasi tuzilib, mazkur shartnoma tuman yer resurslari va kadastr bo'limida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan deb bayon qilgan bo'lsa-da, ish hujjatlarining 25-betidagi Kadastr agentligi Buxoro tumani bo'limining 2021-yil 20-maydagi 01/03-457-04-sonli manfaatdor shaxs Nizomjonovning nomiga yo'llangan xatda tuman hokimi va "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi o'rtasida tuziladigan ijarasi shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tmaganligi ko'rsatilganligidan ko'rinadiki, yuqoridagi xulosa ish holatlariga muvofiq emas.

Bundan tashqari, Kadastr agentligi Buxoro tumani bo'limining 2021-yil 2-iyuldagi 01-03/508-04-sonli javob xatida Buxoro tumani hokimining 2013-yil 10-maydagi 352-Q sonli qarori davlat ro'yxatidan o'tmaganligi, tuman hokimligi va "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi o'rtasida tuziladigan uzoq yillik ijarasi shartnomasi ham davlat ro'yxatidan o'tmaganligi ko'rsatilgan.

Garchi arizachi Buxoro tumani fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi manfaatdor shaxs "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligining jami 3,86 gektar yer maydoni Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarori bilan zaxiraga olinganligi sababli uning huquq va manfaatlari buzilganligini vaj qilib, tuman hokimining ushbu qarorini haqiqiy emas deb topishni so'ragan bo'lsa-da, Buxoro tu-

mani hokimining 2013-yil 10-maydagi 352-Q sonli qarori davlat ro'yxatidan o'tmaganligi, tuman hokimligi va "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi o'rtasida tuziladigan uzoq yillik ijara shartnomasi ham davlat ro'yxatidan o'tmaganligi, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarori qabul qilinayotganda fermer xo'jaligining nizoli yer maydoniga nisbatan biror-bir huquqi mavjud bo'lmaganligi sababli ushbu hokim qarori "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligining huquq va manfaatlarini buzadigan hujjat hisoblanmaydi.

Apellatsiya instansiyasi sudi, ish bo'yicha to'plangan hujjatlar va sud majlisida aniqlangan holatlarni muhokama qilib, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fevraldagi 74-Q sonli qarori qabul qilinayotganda "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligining nizoli yer maydoniga nisbatan biror-bir huquqi mavjud bo'lmagani sababli Buxoro tumanlararo ma'muriy sudining 2021-yil 24-iyundagi hal qiluv qarorini bekor qilib, arizani qanoatlantirishni rad qilish haqida yangi qaror qabul qilishni, javobgar Buxoro tumani hokimligi vakilining sud xarajatlarini o'zining zimmasida qoldirish haqidagi arizasini inobatga olib to'langan davlat boji va pochta xarajatlarini apellatsiya shikoyati bergan shaxsning zimmasida qoldirishni lozim topadi (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2022).

4-keys yuzasidan izoh. Ushbu sud amaliyotidan keltirilgan misolda ham 3-keys tahlilida keltirilgani kabi ma'muriy sud asosan fuqarolik qonunchiligi asosida masalaga yondashgani ko'rinib turibdi. Mazkur keylarda nizo predmeti bo'lmish hokim qarori ma'muriy-huquqiy normalar talablariga ko'ra qachondan kuchga kiradi? "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasi mazmunidan ko'rish mumkinki, ma'muriy aktning kuchga kirishi uning davlat ro'yxatidan o'tishi bilan bog'lanmaganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, shuni ham e'tirof joizki, Buxoro tumani hokimining 2021-yil 5-fev-

raldagi 74-Q sonli qarori qabul qilinayotganda "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi rahbari Nizomovning nizoli yer maydoniga nisbatan biror-bir huquqi mavjud bo'lmagani sud tomonidan e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, Nizomov tomonidan 2013-yildan 2021-yilga qadar yerga oid majburiyatlarni bajarib kelgani, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lab kelgani, qolaversa, Buxoro tumani hokimining 2013-yil 10-maydagi 352-Q sonli qaroriga asosan, Buxoro tumani hokimi va "K-V Chorvadori" fermer xo'jaligi o'rtasida uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilganining o'ziyoq Nizomovning yerga oid huquqlari vujudga kelmasa-da, hech bo'lmaganda qonuniy manfaatlarini yuzaga kelganini anglatishga yetarli asos hisoblanadi. MSIYTK 4-moddasi hamda 185-moddasi mazmunidan esa arizachi nafaqat buzilgan huquqlari, balki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli ekanligini anglash mumkin.

Shunga ko'ra, nazarimizda, ma'muriy sudlar arizachilarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ma'muriy sudga (sudga) murojaat qilishga haqli ekanligi hamda ma'muriy aktning kuchga kirishi uning ro'yxatdan o'tishi emas, balki "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun 55-moddasiga ko'ra, adresat tegishli tarzda xabardor qilinishi bilan bog'lanligiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi (Ciko, 2023; Pudelka, 2023; Nematov, 2023).

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun ma'muriy sudlar amaliyotida hozirgi kunda nisbatan ko'p qo'llanayotgan qonunlardan biriga aylandi, deyishimiz mumkin. Ma'muriy sudlar ma'muriy organlar tomonidan qabul qilingan ma'muriy aktning qonuniyligiga endilikda boshqa qonun hujjatlari barobarida ushbu qonunga asoslangan

holda baho berishlarini ham taqozo etmoqda. Qonunga ko'ra, ma'muriy sudlar tomonidan ma'muriy organlarning ma'muriy aktlariga nafaqat moddiy, balki protsessual qoidalar asosida ham tegishli huquqiy baho berish imkoni kengaydi. Protsessual qoidalarga rioya etmaganlik ma'muriy aktning mazmuniga ta'sir etadigan bo'lsa, yuqori turuvchi organ tomonidan bekor qilinishi,

o'zgartirilishi, qonunga xilof deb topilishi yoki ma'muriy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishiga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun normalarini sud amaliyotida to'g'ri tatbiq etish fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga olib keladi deb aytish mumkin.

REFERENCES

1. Barry, D. D. (1989). Administrative justice: the role of Soviet courts in controlling administrative acts. In G. Ginsburgs (ed.), *Soviet Administrative Law: Theory and Policy*, 64–66.
2. Ciko, J. (2023). *Law on Administrative Procedures: Commentary* (p. 304). Almaty: LEM.
3. Hazard, J. N. (1989). What kind of propaganda in Administrative Law. In G. Ginsburgs (ed.), *Soviet Administrative Law: Theory and Policy* (p. 28).
4. Ichihashi, K. (2010). Outline and Characteristics of the Administrative Procedure Act of Socialist Countries (In Japan.). *Law Bulletin*, 65(6), 87–89.
5. Ichihashi, K. (Ed.) (2010). Actual Administrative Law (In Japan.). *Law Bunka Sha*, 89–90.
6. Ioffe, O. S. (1989). Administrative law in the Soviet legal system: concluding remarks. In G. Ginsburgs (ed.), *Soviet Administrative Law: Theory and Policy* (p. 499).
7. Nematov, J. (2020). Ma'muriy akt qonuniyligi shartlari va ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat)dagi xatolar [Conditions of legality of an administrative act and mistakes in administrative discretion (discretionary authority)] (In Uzbek). *Review of Legal Sciences*, 2, 4–9.
8. Nematov, J. (2020). Some issues of application of the principles of proportionality and opportunity to be heard in administrative procedures of the Republic of Uzbekistan. *Justice*, 5, 61–66.
9. Nematov, J. (2022). Issues of application of the principle of protection of trust in administrative judicial practice of the Republic of Uzbekistan. *Bulletin of the Academy of the Ministry of Internal Affairs*, 2, 27–36.
10. Nematov, J. (2023). *Administrative law* (vol. 1, 231 p.) (In Uzbek). Tashkent: TSUL.
11. Pudelka, J. (2023). *German administrative law* (vol. 2, 1918 p.). *Administrative procedural law*. Berlin: Infotropic Media.
12. Pudelka, J. (2017). The concept of discretion and differentiation from judicial discretion. *Yearbook of Public Law 2017: Discretion and evaluative concepts in administrative law*, 9–14. Moscow: Infotropic Media.
13. Rose-Ackerman, S., & Lindseth, P. L. (2010). Comparative administrative law: an introduction. In *Comparative Administrative Law* (p. 1). Edward Elgar.
14. Simis, K. (1979). The Making of the New Soviet Constitution: Conflict over Administrative Justice. In *Soviet Union*, 6(2).
15. Smith, G. (1978). *The Soviet Procuracy and the Supervision of Administration* (pp. 37–54). Sijthoff & Noordhoff Publ.
16. Solomon P. (2000). Todd Foglesong: Courts and Transition in Russia. In *The Challenge of Judicial Reform* (p. 70). Westview Press.
17. Supreme Court of the Republic of Uzbekistan (2022). Court decisions published by Administrative Courts on the Internet. https://public.sud.uz/report/ADMINISTRATIVE_OLD

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.RDLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayeov Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.
TDYU tipografiyasida chop etildi.